O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 3 - iyun 318-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi PQ-178-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan “IT-shaharcha”lar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-178-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Hududlarda yoshlarni zamonaviy kasb va xorijiy tillarga o‘qitish, ularda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, shu jumladan xalqaro miqyosda xizmatlar ko‘rsatish orqali yuqori daromad topish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, joylarda raqamlashtirish sohasidagi mutaxassislar tayyorlash faoliyatini kengaytirish hamda eksport qilish salohiyatini oshirish maqsadida quyidagilar “IT-shaharcha”ning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

yoshlarni **raqamli texnologiyalar sohasiga yo‘naltirish, ularning mazkur sohada bilim egallash** bo‘yicha intilishlarini rag‘batlantirish;

seminarlar, mentorlik dasturlari va **onlayn ta’lim resurslari** orqali yoshlarda ularning **mehnat bozorida muvaffaqiyatga** erishishiga yordam beruvchi **raqamli texnologiyalar sohasidagi ko‘nikmalarini** shakllantirish va rivojlantirish;

dasturlash va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda **xizmatlar**

ko‘rsatish yo‘nalishlarida ta’lim berish;

xorijiy tillar, shu jumladan ingliz tiliga o‘qitish orqali yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish;

yosh avlodni **zamonaviy kasblarga** o‘qitish, shuningdek, **tabiiy resurslardan oqilona** foydalanish ko‘nikmalarini oshirish.

2. Quyidagilar:

“IT-shaharcha faoliyatini tashkil etish uchun ajratiladigan yer uchastkasi hamda bino va inshoot ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

“IT-shaharcha” faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat aktivlarni boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Soliyev) mazkur qarorga 1-ilovaga muvofiq Toshloq tumanidagi “Yangi yo‘l” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Maishiy xizmat ko‘rsatish texnikumi hududidagi bo‘sh yer maydoni hamda tegishli bino qismini belgilangan tartibda doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilishini ta’minlasin.

3. Belgilansinki:

a) Toshloq tumanida tashkil etiladigan “IT-shaharcha” Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” davlat muassasasining (keyingi o‘rinlarda - Markaz) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bo‘linmalari hisoblanadi;

b) Markaz “IT-shaharcha” faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

yoshlarga **bepul ta’lim olish** uchun qulay sharoitlar yaratadi, ta’lim jarayonlari sifatli tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi hamda yoshlarga **xalqaro masofaviy ta’lim platformalarida** bilim olish imkoniyatini yaratadi;

ta’lim berish uchun **mentorlarni** jalb qiladi, ular bilan shartnomalar tuzadi, shuningdek, bilim va ko‘nikmalarini doimiy oshirib boradi;

“IT-shaharcha” faoliyatini **muvofiqlashtiradi** hamda yuklatilgan vazifalar **ijrosi nazoratini** amalga oshiradi;

o‘quv dasturlariga binoan yoshlarning **bilim olishi** va **ko‘nikmalar egallashi**, shuningdek, mashg‘ulotlar bo‘yicha **davomatini** monitoring qilib boradi;

Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda “IT-shaharcha”da **yoshlar**

ishtirokida sohaga oid **turli musobaqalar, tanlov va boshqa tadbirlarni** tashkil qiladi;

“IT-shaharcha” faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib boradi hamda samaradorligini oshirish choralarini ko‘radi.

4. Raqamlashtirish sohasidagi ta’limni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish, shu jumladan “IT-shaharcha”lar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida raqamli texnologiyalar vaziriga “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan shtat birliklarini bosqichma-bosqich Markazga o‘tkazish vakolati berilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. **Toshloq tumanida “IT-shaharcha” faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin hamda quyidagilar ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

namunaviy loyihalar asosida “IT-shaharcha” ni barpo etish, uni mebel, kompyuter texnikasi hamda boshqa vositalar, zaruriy muhandislik infratuzilmalari bilan ta’minlash ishlarini tashkil etish;

ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, xorijiy tillar va zamonaviy kasblar yo‘nalishida yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar (mentorlar)ni jalb qilishga ko‘maklashish;

“IT-shaharcha” faoliyati samaradorligini baholash va monitoring qilish;

mutaxassislar (mentorlar) malakasi muntazam oshirib borilishi, yoshlarning “IT-shaharcha”da tahsil olishga yo‘naltirilishini ta’minlash.

6. Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari X.Isaqov “IT-shaharcha”ning bino va inshootlarini qurish, mavjudlarini kapital ta’mirlash uchun pudrat tashkilotlarini belgilangan tartibda jalb qilinishini ta’minlasin.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (L.Pozilov) “IT-shaharcha” faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun loyiha-smeta hujjatlarini joriy yilning 30-may kuniga qadar tayyorlash choralarini ko‘rsin hamda bino-inshootlarning qurilish-montaj ishlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan belgilangan tartibda davlat arxitektura-qurilish nazoratini o‘rnatsin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Soliyev) “IT-shaharcha”lar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur bino va inshootlar foydalanishga topshirilgandan so‘ng ularni belgilangan tartibda Markazga operativ

boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

7. Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (M.G‘aniyev), Raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy sho‘basi (Y.Gafurov) yoshlarni “IT-shaharcha”ga muntazam ravishda jalb qilib borish choralarini ko‘rsin.

8. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 3-iyundagi
318-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

“IT-shaharcha” faoliyatini tashkil etish uchun ajratiladigan yer uchastkasi hamda bino va inshoot RO‘YXATI

№	Hudud nomi	Yer uchastkasi / bino va inshootlarning joylashgan manzili	Yer uchastkasi maydoni (gektar)	Yer uchastkasi foydalanuvchisi / bino va inshootni balansda saqlovchi nomi	Topshirish muddati
1.	Farg‘ona viloyati	Toshloq tumani “Yangiyo‘l” MFY	0,40	Maishiy xizmat ko‘rsatish texnikumi hududidagi bo‘sh yer maydoni	2024-yil 1-oktyabr

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 3-iyundagi
318-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

“IT-shaharcha” faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha CHORA-TADBIRLAR DASTURI

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
I. «IT-shaharcha”larni barpo etish va jihozlash					
Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida «IT-shaharcha”ni tashkil etish					
1.	“IT-shaharcha” bino va inshootlarini qurish.	1. “IT-shaharcha”ni tashkil etish uchun zarur yer uchastkalarini ajratish. 2. “IT-shaharcha” tashkil etiladigan hududlarning bosh reja sxemalariga zarur o‘zgartirishlar kiritish. 3. “IT-shaharcha”ni barpo etish bo‘yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va qurilishini amalga oshirish. 4. “IT-shaharcha” qurilishi tugagandan so‘ng Raqamli ta’limni rivojlantirish markaziga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish.	2024-yil sentyabr	1 mlrd so‘m, mahalliy byudjet mablag‘lari	Farg‘ona viloyati hokimligi (X.Sirojitdinov), Toshloq tumani hokimligi (A.Jo‘raboyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi *(L. Pozilov)* Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi (Y.Gafurov), “UZINFOCOM” MCHJ (E.Gimranov)
2.	“IT-shaharcha”ni mebel, kompyuter texnikasi hamda boshqa vositalar bilan jihozlash.	1. “IT-shaharcha”ning namunaviy dizaynini va jihozlash bo‘yicha talablarni ishlab chiqish. 2. “IT-shaharcha”ni jihozlash va zarur texnikalar bilan ta’minlash.	2024 yil sentyabr	800 mln so‘m, mahalliy byudjet mablag‘lari	Farg‘ona viloyati hokimligi (X.Sirojitdinov), Toshloq tumani hokimligi (A.Jo‘raboyev), Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi (Y.Gafurov), “UZINFOCOM” MCHJ (E.Gimranov)
3.	“IT-shaharcha”ni zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan ta’minlash.	1. “IT-shaharcha”ga zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan ta’minlash. 2. “IT-shaharcha”da qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tashkil etish.	2024-yil sentyabr	Ijrochilar mablag‘lari	“Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ *(A. Saydaliyev)* “Hududgaz Fargo‘na” gaz ta’minoti filiali rahbari *(Sh. Abdumajidov)* “O‘zbektelekom” AK Farg‘ona filiali. *(V.Yejkov)* Toshloq tumani hokimligi *(A. Jo‘raboyev)*
II. Ta’lim jarayonlarini tashkil etish					
4.	“IT-shaharcha”da amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish.	Yoshlarni raqamli texnologiyalar, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha dasturlar, metodik va boshqa qo‘llanmalarni ishlab chiqish.	2024 yil avgust		Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi (Y.Gafurov)
5.	“IT-shaharcha”da yoshlarning vaqtlarini mazmunli tashkil etish.	Yoshlar ishlari agentligi tomonidan kutubxona va shaxmat to‘garaklarini tashkil qilish.	Doimiy ravishda	Ijrochilar mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Yoshlar ishlari agentligi boshqarmasi (M.G‘aniyev)

6.	“IT-shaharcha” haqida keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va ularga yoshlarni jalb etish.	1. “IT-shaharcha”da raqamli texnologiyalar, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o‘rganish, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishga jalb qilishni targ‘ib qiluvchi materiallarni ishlab chiqish. 2. Aholi va yoshlarning “IT-shaharcha”lar faoliyati bo‘yicha xabardorligini oshirish. 3. “IT-shaharcha”ga qiziqishi yuqori bo‘lgan biroq, uzoq manzilda istiqomat qiluvchi yoshlarni jalb qilish uchun zaruratga ko‘ra autsorsing asosida tashish (transport) xizmatlarini yo‘lga qo‘yish. 4. Yoshlarni “IT-shaharcha”ga keng jalb qilib borish.	2024-yil sentyabr Doimiy ravishda	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Farg‘ona viloyati hokimligi *(Sh.Raximov)* Yoshlar ishlari agentligi boshqarmas (M. G‘aniyev), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi *(Sh.Dolimov),* Farg‘ona viloyati transport boshqarmasi, Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi.
7.	“IT-shaharcha”da o‘quv jarayonlarini monitoring qilish, barcha tahsil olgan yoshlar ma’lumotlarini shakllantirish va soha bo‘yicha yo‘naltirib borish.	1. Mavjud maxsus axborot tizimini takomillashtirish bo‘yicha texnik talab va topshiriqlarni ishlab chiqish. 2. Maxsus axborot tizimini takomillashtirish choralarini ko‘rish. 3. Maxsus tizimda “IT-shaharcha”lar bitiruvchilari ma’lumotlari (“portfolio”sini) shakllantirish hamda yiliga kamida 100 nafar eng iqtidorli yoshlar bilan manzilli ishlash.	2024. yil avgust 2025. yil yanvar 2025-yil martdan boshlab doimiy	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi va ijrochi mablag‘lari	Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi, “UZINFOCOM” MCHJ
11.	“IT-shaharcha”da tashkil etiladigan o‘quv jarayoni sifatini ta’minlash hamda mentorlar malakasini oshirib borish.	1. “IT-shaharcha”da yoshlarga o‘quv reja va dasturlari asosida sifatli ta’lim berilishi hamda o‘quvchi yoshlarning o‘zlashtirish darajalarini monitoring qilib borish. 2. Kalendar reja asosida mentorlar malakasini oshirib borish.	Loyihani amalga oshirish davomida	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi, (Y.Gafurov).

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 3-iyundagi
318-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Toshloq tumanida “IT-shaharcha” faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI

X.K. Sirojitdinov	-	Farg‘ona viloyati hokimining hokimining birinchi o‘rinbosari - Ishchi guruh rahbari
Y.I. Gafurov	-	Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi boshlig‘i - Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
Sh.A. Dolimov	-	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i
L.A. Pozilov	-	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i
A. T. Ziyavitdinov	-	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i
V.V.Yejkov	-	“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Farg‘ona filiali direktori
M.A. G‘aniyev	-	Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i
A.A. Jo‘raboyev	-	Toshloq tumani hokimi
E.I. Gimranov	-	Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator “UZINFOCOM” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori
Sh.Sh. Sattorov	-	Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi direktori